



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

7. OECD. E-commerce in the Digital Economy. OECD Publishing, 2019.
8. UNCTAD. Digital Economy Report. 2021.
9. World Bank. Digital Economy for Development. 2021.
10. Porter, M. E. Competitive Advantage. Free Press, 2008.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI

Rustamova Aziza Akmal qizi

3-kurs talabasi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti.

rustamovaaziza223@gmail.com

Rahbar: Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universitet.

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/URLF6611

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning jamiyatdagi o'rni hamda ularning bolalar rivojiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitda yosh avlodning axloqiy qiyofasini shakllantirish, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish yo'llari yoritilgan. Muallif tomonidan raqamli savodxonlikni oshirish, ota-ona va jamiyat hamkorligini kuchaytirish hamda bolalar uchun xavfsiz raqamli muhit yaratish masalalari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Raqamli texnologiya, raqamli jamiyat, bolalar rivoji, ta'lim, raqamli savodxonlik, internet, axloqiy tarbiya, kiberxavfsizlik, ijtimoiy muhit, innovatsiya.*

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ В ОБЩЕСТВЕ

Рустамова Азиза Акмаль кизи,

Студентка 3-го курса,

Ташкентский государственный университет узбекского языка и

литературы имени Алишера Навои

Email: rustamovaaziza223@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется роль цифровых технологий в обществе и их влияние на развитие детей. Рассматриваются как положительные, так и отрицательные стороны цифровой среды, а также вопросы формирования нравственного облика подрастающего поколения. Особое внимание уделяется эффективному использованию

цифровых технологий в образовании и мерах по снижению их негативного воздействия. Автор подчеркивает важность развития цифровой грамотности, укрепления сотрудничества семьи и общества, а также создания безопасной цифровой среды для детей.

Ключевые слова: *Цифровые технологии, цифровое общество, развитие детей, образование, цифровая грамотность, интернет, воспитание, кибербезопасность, социальная среда, инновации.*

THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON CHILD DEVELOPMENT IN SOCIETY

Aziza Akmal qizi Rustamova,

3rd-year student,

Tashkent State University of Uzbek Language and

Literature named after Alisher Navoi

Email: rustamovaaziza223@gmail.com

ANNOTATION: This article examines the role of digital technologies in modern society and their impact on children's development. It analyzes both the positive and negative effects of the digital environment and highlights the importance of shaping the moral values of the younger generation. The study also focuses on the effective use of digital technologies in education and ways to minimize their negative consequences. The author emphasizes the need to enhance digital literacy, strengthen cooperation between families and society, and create a safe digital environment for children.

Keywords: *Digital technologies, digital society, child development, education, digital literacy, internet, moral education, cybersecurity, social environment, innovation.*

Hozirgi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi natijasida inson hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, yosh avlod — bolalar rivojida raqamli muhitning o'rnini tobora ortib bormoqda. Shu bois, raqamli texnologiyalarning bolalar rivojiga ta'sirini o'rganish, uning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda salbiy oqibatlarini oldini olish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiya so'nggi o'n yilliklarda ta'sirchan evolyutsiyaga guvoh bo'ldi, bu esa o'z navbatida hayotimizni o'zgartirdi va rivojlanishimizga yordam berdi. Texnologiya insoniyatga hashamatli va qulay hayot kechirishga yordam berish uchun hamma narsadan ko'proq hissa qo'shdi. Aynan texnologiya tufayli biz o'z dunyomizni

va kosmosni yaxshiroq bilamiz. Bu hayotimizning barcha jabhalarida texnologiyaning muhimligini aniq ko'rsatib turadi. Texnologiya sohasida doimiy ish va taraqqiyot mavjud, chunki u katta foyda keltiradi. Va bu imtiyozlar bizning kundalik hayotimizga va sog'liqni saqlash, avtomobil, aloqa, ishlab chiqarish va biznes kabi ko'plab sohalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi [Tafakkur manzili, 2023].

Bugungi kunda "Raqamli jamiyat" barpo etish, bu jamiyat yaratilishi uchun mos bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, shu asnosida "Raqamli iqtisodiyot"ni ham rivojlantirish - barcha rivojlanish va taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatlarning asosiy o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ham "Raqamli jamiyat"ni tubdan o'rganish, uni avfzalliklari va kamchiliklari bilan birgalikda tahlil qilish, uning konsepsiyalari, o'z oldiga qo'ygan maqsad va strategiyalarini yuqori darajada o'zlashtirish shart hisoblanadi. Chunki, bunday jamiyat kelajak iqtisodiyotini belgilab beradi, ishsizlik darajasi ham o'z-o'zidan bunday jamiyatning qay tartibda rivojlanishiga bog'liqdur. Yana shuni ham ta'kidlash kerak-ki, ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa, milliy xavfsizlik masalalari

ham o'zini o'rab turgan jamiyatiga chambarchas bog'liq bo'lishi hech kimga sir emas. Raqamli jamiyatning zaruriyati bugungi kunda kundalik hayotimizda va iqtisodiyotda katta o'ringa ega. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli infrastrukturani yaratish orqali jamiyatni samarali rivojlantirish mumkin. Xususan, quyidagi sohalar shular jumlasidandur:

1. Ma'lumotga oson kirish imkoniyati.
2. Iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik.
3. Ta'lim va kasb-hunar rivoji.
4. Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi.
5. Barqarorlik va ekologiya.
6. Ijtimoiy tenglik.

"Raqamli jamiyat" (ingliz tilida Digital society) - bu raqamli texnologiyalar keng tarqalgan va hayotning deyarli barcha sohalariga chuqur singib ketgan jamiyatga aytiladi. Bu atama zamonaviy texnologiyalar, internet, sun'iy intellekt, axborot tizimlari va raqamli xizmatlar asosida shakllangan ijtimoiy tizimni anglatadi. Bu

zamonaviy xalqlar jamiyatlarida, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng qo'llanishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan keng atama deb tavsiflanadi. Raqamli jamiyat – bu zamonaviy hayotni tasvirlash uchun ishlatiladigan, yagona raqamli jamiyat emas, balki bir nechta raqamli jamiyatlar bo'lishi mumkin. “Raqamli jamiyat” jarayonlar va obyektlarning raqamli shakllarga aylanishini anglatadi. Raqamli jamiyat bir nechta nomlarga ega: axborotlashgan jamiyat, axborot asri, kompyuter asri, post-industrial jamiyat, tarmoq jamiyati, to'rtinchi sanoat inqilobi. Raqamli jamiyat rivojlanishidagi muhim bosqichlar: Integrallashgan sxema, mikroprotssessor, shaxsiy kompyuter, internet, onlayn ijtimoiy tarmoqlar, mobil va bulutli hisoblash texnologiyalari. Bu tushunchani yaxshiroq tushunib olish uchun asosiy xususiyatlariga e'tibor qaratish zarur, quyida shu xususiyatlar bilan tanishamiz:

1. Axborot kommunikatsiya-texnologiyalarining keng qo'llanilishi.
2. Raqamli texnologiyalar va turli xil platformalarning jamiyatdagi markaziy o'rni.
3. Ma'lumotlarning integratsiyalashuvi osonroq va aniq statistika asosida olib borilishi.
4. Sun'iy intellekt va avtomotlashtirishning optimal darajada ekanligi.
5. Yuqori sifatli masofaviy ish va ta'limning imkoniyatlari mavjudligi.
6. Kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi.
7. Raqamli xizmatlar va ilovalarning talab darajasida mavjudligi va ularning sifatli, boshqa sohalar bilan integratsion usulda ishlay olishi.
8. Elektron hukumat va raqamli davlat unsurlari.
9. Mobil aloqa va internet infratuzilmasining rivojlanganligi.
10. Start-up va innovatsiyalar uchun yaratilgan imkoniyatlarning masshtabining kengligi.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot inson hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya vositalari hayotimizga tobora chuqurroq kirib borar ekan, raqamli jamiyat tushunchasi shakllanib bormoqda. Ushbu

jamiyatda ayniqsa yosh avlodning dunyoqarashi, ahloqiy qiyofasi va qadriyat tizimi sezilarli darajada o'zgarishga yuz tutmoqda. Shu sababli, bugungi kunda raqamli muhitda yoshlarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylangan. Yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy jihatlarini to'g'ri anglash muhimdir. Raqamli muhit virtual va real hayot o'rtasidagi chegaralarni yo'qqa chiqarayotgani, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga bevosita ta'sir qilayotgani bois, ularning ahloqiy qarashlari, qadriyat tanlovlari ham o'zgarishga yuz tutmoqda. Turli madaniyatlardan kirib kelayotgan g'oyalar esa milliy qadriyatlar bilan to'qnash kelib, yoshlarda ma'naviy izlanish va ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu o'rinda yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda quyidagi ijtimoiy tamoyillar alohida ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, ta'lim-tarbiyada axloqiy qadriyatlarni integratsiyalash zarur. Bu o'quv dasturlarida tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirib, yoshlarning tarixiy, madaniy va diniy merosni chuqur anglashi ta'minlanishi lozim.

Ikkinchidan, oila tarbiyasining o'rni mustahkamlanishi kerak. Ota-onalarning raqamli dunyo xaritalarini bilishi, farzandlar bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirishi hamda oilada halollik, hurmat, sabr, mehr kabi ahloqiy fazilatlarni kundalik hayotda namoyon etishi yosh shaxs kamolotida muhim o'rin tutadi. Uchinchidan, davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlari yo'lga qo'yilishi lozim. Jumladan, mediasavodxonlikka oid dasturlar orqali yoshlar noto'g'ri axborot, yolg'on va manipulyatsiyalardan himoyalaniishi, axborotning ishonchliligini baholay olishi zarur. Shuningdek, yoshlarni ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok ettirish ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

To'rtinchidan, raqamli axloq, ya'ni netika tamoyillarini keng targ'ib qilish bugungi kunning talabidir. Internet muhitida hurmat, madaniyat, plagiatga qarshi kurashish, kiberzo'ravonlikka barham berish bo'yicha aniq tushunchalar berilishi, yoshlarning virtual muhitda ham mas'uliyatli fuqarolar sifatida harakat qilishi uchun sharoit yaratilishi zarur. Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyatda yoshlarning axloqiy

qiyofasini shakllantirish bir yoqlama emas, balki kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta'lim tizimi, oila, jamiyat va davlat organlari o'zaro hamkorlikda harakat qilishi lozim. Faqat shunda biz yoshlarni raqamli dunyoda mas'uliyatli, vijdonli va insonparvar shaxslar sifatida voyaga etkazish imkoniga ega bo'lamiz [Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi b-177].

Raqamli texnologiyalarning bolalar rivojiga turlicha ta'siri ko'rsatishi mumkin. Misol uchun ijobiy va salbiy tasir qiladi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, bolalar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO va UNICEF tadqiqotlariga ko'ra, raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish bolalarning bilim olish jarayonini samaraliroq va qiziqarli qiladi.

Ta'lim imkoniyatlarining kengayishi. Raqamli texnologiyalar bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Internet orqali turli elektron darsliklar, video materiallar va interaktiv platformalarga kirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu o'quvchilarga mustaqil ravishda bilim olishga yordam beradi. OECD hisobotlariga ko'ra, raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarning individual o'rganish tezligini hisobga olish imkonini beradi va ta'limni shaxsga yo'naltirilgan shaklga keltiradi. Natijada bolalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Ijodkorlikning rivojlanishir, raqamli texnologiyalar bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Turli grafik dasturlar, multimedia ilovalari va raqamli platformalar orqali bolalar rasm chizish, video yaratish, musiqa bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'ladi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, raqamli muhitda ishlash bolalarda kreativ fikrlashni rag'batlantiradi hamda yangi g'oyalarni erkin ifodalash imkonini beradi. Bu esa ularning intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (UNESCO, 2021).

Aloqa va ijtimoiylikning rivojlanishi, raqamli texnologiyalar bolalarning muloqot qilish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishida ham muhim rol o'ynaydi. Onlayn platformalar orqali bolalar tengdoshlari bilan fikr almashishi, jamoaviy loyihalarda ishtirok etishi mumkin. UNICEF tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli aloqa

vositalari bolalarning hamkorlikda ishlash, o'z fikrini ifodalash va boshqalarni tinglash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularning ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi.

Maxsus ehtiyojli bolalar uchun imkoniyatlar, raqamli texnologiyalar imkoniyati cheklangan bolalar uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. Maxsus dasturlar, matnli ovozga aylantiruvchi texnologiyalar, eshitish va ko'rish uchun moslashtirilgan qurilmalar ular uchun ta'lim olishni osonlashtiradi. World Health Organization ma'lumotlariga ko'ra, assistiv texnologiyalar nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu esa ta'limda teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi (UNICEF, 2017).

Raqamli texnologiyalarning bolalar rivojiga salbiy ta'siri, raqamli texnologiyalar ta'lim va rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, bolalar salomatligi va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, World Health Organization, UNICEF hamda American Academy of Pediatrics tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli qurilmalardan ortiqcha foydalanish bolalar rivojida muayyan xavflarni keltirib chiqarishini ko'rsatadi.

Sog'liqqa zarar, raqamli qurilmalardan uzoq vaqt davomida foydalanish bolalarning jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Xususan, ekran qarshisida uzoq o'tirish ko'zning zo'riqishi, ko'rish qobiliyatining pasayishi hamda uyqu rejimining buzilishiga olib keladi. World Health Organization tavsiyalariga ko'ra, bolalar uchun kundalik ekran vaqtini cheklash zarur, chunki ortiqcha foydalanish jismoniy faollikning kamayishiga va semirish xavfining ortishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, kam harakatlilik mushak va suyak tizimi rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik ta'sir, raqamli texnologiyalar bolalarning ruhiy holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, ortiqcha gadjet ishlatish diqqatning pasayishi, tez chalg'ish va o'qishga qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin. American Academy of Pediatrics ma'lumotlariga ko'ra, uzoq vaqt davomida ekran bilan shug'ullanish bolalarda internetga qaramlik, xavotir va depressiv holatlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, yosh bolalarda real hayot va virtual muhitni farqlash qiyinlashadi.

Ijtimoiy muammolar, raqamli texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. UNICEF tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'p vaqtini virtual muhitda o'tkazadigan bolalarda yuzma-yuz muloqot qilish ko'nikmalari sust rivojlanadi. Bu esa ijtimoiy izolyatsiya, yolg'izlik hissi va kommunikativ qiyinchiliklarga olib keladi. Shuningdek, internetdagi zararli kontent va kiberzo'ravonlik (cyberbullying) holatlari ham bolalarning ruhiy va ijtimoiy holatiga salbiy ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir (UNICEF, 2017).

Raqamli texnologiyalarning bolalar rivojiga salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy jihatlarini kuchaytirish uchun kompleks, ya'ni ko'p tomonlama yondashuv zarur.

Birinchidan, raqamli foydalanishni me'yorlash zarur. Bolalarning gadjetlardan foydalanish vaqti yoshiga mos ravishda cheklanishi kerak. Masalan, kunlik ekran vaqti aniq tartib asosida belgilanib, o'qish, dam olish va jismoniy faollik o'rtasida muvozanat yaratilishi lozim. Bu sog'liq bilan bog'liq muammolarni kamaytiradi.

Ikkinchidan, ota-onalar nazoratini kuchaytirish muhim. Ota-onalar farzandlarining qanday kontent iste'mol qilayotganini kuzatib borishi, zararli axborotlardan himoya qilishi zarur. Shu bilan birga, ota-ona o'zi ham raqamli madaniyatga ega bo'lib, bolaga to'g'ri namuna bo'lishi kerak. Eng muhimi — nazorat bilan birga ishonchli muloqot muhitini yaratishdir.

Uchinchidan, ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni rivojlantirish lozim. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida bolalarga nafaqat texnologiyadan foydalanish, balki axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalari o'rgatilishi kerak. Bu esa ularni yolg'on axborot va manipulyatsiyalardan himoya qiladi.

To'rtinchidan, foydali va rivojlantiruvchi kontentni kengaytirish zarur. Bolalar uchun sifatli ta'limiy platformalar, interaktiv dasturlar, milliy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan kontentlar ko'paytirilishi kerak. Bu ularning vaqtini samarali o'tkazishiga yordam beradi.

Beshinchidan, jismoniy va ijtimoiy faollikni oshirish kerak. Bolalarni sport, kitob o'qish, ijodiy mashg'ulotlar va jonli muloqotga jalb qilish orqali

virtual muhitga qaramlikning oldi olinadi. Bu ularning har tomonlama sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi.

Oltinchidan, kiberxavfsizlik va raqamli axloq (netika)ni shakllantirish zarur. Bolalarga internetdagi xulq-atvor qoidalari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberzo'ravonlikka qarshi kurashish kabi tushunchalar o'rgatilishi lozim. Bu ularning raqamli muhitda xavfsiz harakat qilishini ta'minlaydi.

Yettinchidan, davlat va jamiyat darajasida qo'llab-quvvatlash kuchaytirilishi kerak.

Maxsus dasturlar, mediasavodxonlik loyihalari, ota-onalar uchun treninglar tashkil etilishi orqali umumiy raqamli madaniyatni oshirish mumkin. Bu muammoni tizimli ravishda hal etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, ayniqsa bolalar rivojiga kuchli va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli muhit bolalarga keng ta'lim imkoniyatlarini yaratib, ularning bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv shaklga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, raqamli vositalar bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni mustaqil o'rganishga undaydi hamda global axborot makoniga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar uchun yaratilayotgan raqamli imkoniyatlar ta'limda tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, raqamli texnologiyalardan noto'g'ri va me'yoridan ortiq foydalanish bolalarning jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ekran vaqtining ortishi sog'liq muammolarini keltirib chiqaradi, ruhiy zo'riqish va diqqatning susayishiga olib keladi, shuningdek, real ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, internet muhitidagi zararli axborot va kiberxavflar ham bolalar tarbiyasida jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, raqamli texnologiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlash muhimdir. Bu jarayonda ota-onalar, ta'lim muassasalari va jamiyat birgalikda harakat qilib, bolalarda raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini shakllantirishi zarur. Faqat shundagina raqamli texnologiyalarning ijobiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanib,

ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin bo'ladi. Natijada esa bolalar raqamli jamiyat sharoitida barkamol, ongli va mas'uliyatli shaxslar sifatida voyaga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO. *Education in a Digital World*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
2. UNICEF. *The State of the World's Children 2017: Children in a Digital World*. – New York: UNICEF, 2017.
3. World Health Organization. *Guidelines on Physical Activity, Sedentary Behaviour and Sleep for Children Under 5 Years of Age*. – Geneva: WHO, 2019.
4. OECD. *Students, Computers and Learning: Making the Connection*. – Paris: OECD Publishing, 2015.
5. American Academy of Pediatrics. *Children and Media Use Guidelines*. – USA, 2016.
6. “Tafakkur manzili” ilmiy-ma'rifiy jurnali. – Toshkent, 2023.
7. *International Scientific and Practical Conference Proceedings*. – Vol. 1, No. 6, 2025.
8. “Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi” ilmiy jurnali. – Toshkent, 2024. – B. 177.
9. Castells Manuel *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
10. Tapscott Don *Digital Economy*. – New York: McGraw-Hill, 1995.

SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT

Jo'raqulov Jasurbek

Oriental universiteti Tarix fakulteti

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/RLWK5352

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Shayboniylar davlati bo'ylab ilmiy va madaniy hayotning o'sish bosqichlari, uning ijtimoiy-siyosiy asoslari va fan, adabiyot, me'morchilik va san'at sohalaridagi yutuqlari ko'rib chiqiladi. Shayboniylar davrida Movarounnahr va Xurosonda ilmiy muhitning rivojlanishi, madrasa faoliyatining o'sishi, adabiyot va tarixning rivojlanishi mustaqil ravishda ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, davlat amaldorlarining homiylik amaliyotlari va fan va madaniyatga bo'lgan munosabati ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Shayboniylar davri o'ziga xos ilmiy va madaniy uyg'onish davrlaridan biri bo'lib, keyingi davrlar uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Kalit so'zlar: *Shayboniylar davlati, ilmiy hayot, madaniyat, madrasalar, tarixnavislik, adabiyot, me'morchilik, Movarounnahr, Xuroson, ilm-fan rivoji.*

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

